

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

XAYDAROV SARDOR KOMIL O‘G‘LI

AGROKLASTERLARNING TASHKILIIY-IQTISODIY
BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 - “Menejment”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Xaydarov Sardor Komil O‘g‘li

Agroklasterlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini takomillashtirish
.....3

Хайдаров Сардор Комил угли

Совершенствование организационно-экономической эффективности
управления агрокластерами26

Xaydarov Sardor Komil ugli

Improving the efficiency of organizational and economic management of
agroclusters.....54

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

XAYDAROV SARDOR KOMIL O‘G‘LI

AGROKLASTERLARNING TASHKILIIY-IQTISODIY
BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 - “Menejment”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026 yil

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.3.PhD/Iqt4598 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ochilov Ilhom Sayitqulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qosimova Dilorom Sobirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saidov Mash'al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.I.23.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «___» _____ kuni soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:. 100000, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-66; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiing Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239-28-66; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: admin@ tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «___» _____kuni tarqatildi.
(2026 yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.Dj. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Sh.A.Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish, raqobat muhitining keskinlashuvi hamda resurslar cheklanganligi sharoitida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra¹, "... jahon bo'ylab ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha 13,3 foizi ishlab chiqarishdan tortib, qayta ishlash va sotishgacha bo'lgan bosqichlarda yo'qotilmoqda", bu esa agrar tarmoqda boshqaruv samaradorligini oshirish zaruratini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayonlarini yagona tizim sifatida integratsiyalashga qaratilgan agroklastlar modeli jahon amaliyotida iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi samarali mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, agroklastlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv samaradorligini zamonaviy menejment yondashuvlari asosida ilmiy jihatdan takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon ilmiy-amaliy tadqiqotlarida agroklastlar faoliyati samaradorligini oshirish, avvalo, ularning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanmoqda. Xususan, agroklastlarda boshqaruv subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish, resurslar harakatini optimal tashkil etish, strategik va operatsion menejment mexanizmlarini joriy etish hamda boshqaruv qarorlarining natijadorligini baholash masalalari ustuvor ilmiy yo'nalishlar sifatida shakllanmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish, korporativ boshqaruv elementlarini agrar tarmoq xususiyatlariga moslashtirish, samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish agroklastlar boshqaruvida zamonaviy menejmentning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur omillar agroklastlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish va uni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, agrosanoat integratsiyasini chuqurlashtirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda agroklastlar tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan tarkibiy va institutsional islohotlar sharoitida agroklastlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarining natijadorligini oshirish iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, amaldagi agroklastlar faoliyati tahlili boshqaruv tizimida resurslardan foydalanish samaradorligi, ishtirokchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, boshqaruv funksiyalari va vakolatlarini aniq taqsimlash bilan bog'liq qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur holatlar agroklastlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

¹https://www.fao.org/sustainable-development-goals-data-portal/data/indicators/1231-global-food-losses/en?utm_source

Dissertatsiya tadqiqotining me'yoriy-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 8-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi O'RQ-995-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son hamda 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmonlari tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978-son qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining agroklastlar faoliyatini rivojlantirishga oid qarorlarida belgilangan vazifalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, agroklastlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqotlarimiz M.E.Porterning klaster nazariyasi, M.Delgado, S.Stern va C.Ketelsning hududiy klasterlar va iqtisodiy samaradorlik bo'yicha empirik tadqiqotlari, J.H. Trienekensning qishloq xo'jaligi qiymat zanjirlari haqidagi yondashuvlari hamda I.Laur, M.Klofsten va D.Bienkowska² tomonidan klaster tashabbuslari va hududiy innovatsion rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu manbalar klasterlarni hududiy raqobatbardoshlik, kooperatsiya, qiymat zanjiri va innovatsion rivojlanish omili sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Agroklastlarni raqamli transformatsiya sharoitida rivojlantirish bo'yicha so'nggi ilmiy ishlarda IoT, Big Data, sun'iy intellekt, raqamli platformalar va masofaviy monitoring texnologiyalari klaster boshqaruvining yangi mexanizmlari sifatida baholanmoqda. Liebig L., Wenzlaff F., Wolfert S., Zhang Y., Wang L., Chen X. tadqiqotlarida³ Xitoyning 29 provinsiyasi bo'yicha 2012–2022-yillar panel ma'lumotlari asosida raqamli texnologiyalarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish

²Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. – 1998. – Vol. 76, No. 6. – P. 77–90. Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // Research Policy. – 2014. – Vol. 43, No. 10. – P. 1785–1799. Delgado M., Ketels C., Porter M.E., Stern S. Defining Clusters of Related Industries // Journal of Economic Geography. – 2016. – Vol. 16, No. 1. – P. 1–38. Trienekens J.H. Agricultural Value Chains in Developing Countries: A Framework for Analysis // International Food and Agribusiness Management Review. – 2011. – Vol. 14, No. 2. – P. 51–82. Laur I., Klofsten M., Bienkowska D. Catching Regional Development Dreams: A Study of Cluster Initiatives as Intermediaries // European Planning Studies. – 2012. – Vol. 20, No. 11. – P. 1909–1921. Galvez-Nogales E. Agro-based Clusters in Developing Countries: Staying Competitive in a Globalized Economy. – Rome: FAO, 2010. – P. 1–105. Andersson T., Schwaag Serger S., Sörvik J., Wise Hansson E. The Cluster Policies Whitebook. – Malmö: IKED, 2004. – P. 17–65.

³Liebig L., Wenzlaff F., Wolfert S. The Digital Transformation of the Agricultural Value Chain: Discourses on Opportunities, Challenges and Controversial Perspectives on Governance Approaches // Sustainability. – 2022. – Vol. 14, Issue 7. – Article 3905. Zhang Y., Wang L., Chen X. Digital Technology and Agricultural Production Agglomeration: Mechanisms, Spatial Spillovers, and Heterogeneous Effects in China // Sustainability. – 2025. – Vol. 17, Issue 10. – Article 4387.

aglomeratsiyasiga ta'siri ekonometrik modellar orqali baholangan va raqamli texnologiyalar klasterlashuv jarayonini rag'batlantirishi asoslangan.

Respublikamiz olimlari tomonidan esa agroklastarlarni tashkil etish, ularning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi va faoliyati samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Abdulloyev A.J., Topildiyev S.R., Yaxshiyeva M.T., Ochilov I.S., Hafizov B.Z., Z.Abdalov, I.Islomov, F.Berdikulov, Mannopova M.S., Axrorov F.B., Usmonqulov J.Ye., Urdushev X., Eshankulov S., Mavlyanov M., Yoqubov T.G., Bozorboyev A., Nosirov B., Yuldasheva H., Burxanov N., Xudoyarova M., Teshabayev J.M., Uzmanbayeva D.T., Usmonov B.Sh., Rahimov F.X., Shukurillayev U.B., Obidov R.R., Fayziyev O.R., Aytimbetov A.K., Roziqov J.M., Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M., Raxmatov M.A., Zaripov B., Qurbanova D.M.⁴ va boshqalarning ilmiy ishlarida agroklastarlarni iqtisodiyotda samarali tashkiliy-iqtisodiy shakl sifatida shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Biroq agroklastarlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligini kompleks baholash, uni takomillashtirishning yagona tizimli mexanizmini ishlab chiqish, shuningdek boshqaruv qarorlarining natijaviyligini oshirish masalalari yetarli darajada mustaqil ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligi mazkur dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

⁴Abdulloyev A.J. Agroklastarlarni faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2023.; Topildiyev S.R. "O'zbekistonda sanoat klasterlarini tashkil etishning nazariy asoslari". "Klaster xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning asosiy yo'nalishlari". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami - T.: TDIU, 2020. – 51-56 b.; Yaxshiyeva M.T. "O'zbekistonda sanoat klasterlarini tashkil etishning nazariy asoslari". "Iqtisodiy klasterlarga o'tish mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili". Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami - T.: TDIU, 2020. – 40-41 b.; Ochilov I.S. "Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan". *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, 2024, Vol.1 No.4; Hafizov B.Z. "Cluster Theory and Development of Agroclusters in the Republic of Uzbekistan". *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 2021, Vol.9 No.6; Abdalova Z., Islomov I., Berdikulov F. "Economic Geographical Aspects of Implementation of Clusters in Agriculture in the Republic of Uzbekistan (Tashkent Region as an Example)". *The Bioscan*, 2024, Vol.19 (Special Issue-1) pp.22-28; Mannopova M.S. "Potential fruit and vegetable production in Uzbekistan and the role of clusters in their activities". *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2024, Vol.2 No.6.; Axrorov F.B., Usmonqulov J. E. "Cluster certification for organic agriculture in uzbekistan: criteria, procedures and potential benefits for small farmers". *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 2023.; Urdushev X., Eshankulov S., Mavlyanov M. "The role of clusters in increasing the economic potential of agricultural enterprises". *Science and Innovative Development*, 2021 Vol.4 No.3, b.b.13-26.; Yoqubov T.G., Bozorboyev A. "Enterprises of the Fruit and Vegetable Cluster in Uzbekistan and Issues of Improving the Management System of Their Activities". *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*, 2022 Vol.8, b.b.18-23.; Nosirov B., Yuldasheva H. "Optimizing Cost-Effectiveness in Fruit and Vegetable Agro-Clusters". *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2021 Vol.2 No.10, b.b.43-50.; Burxanov N., Xudoyarova M. "Agricultural Clusters in the Republic of Uzbekistan and Their Impact on Tax Policy". *International Journal of Artificial Intelligence*, 2025 Vol.1 No.5, b.b.130-136.; Teshabayev J.M., Uzmanbayeva D.T. "Agro-Industrial Clusters as a Form of Innovative Development in the Industry". *International Journal of Advance Scientific Research*, 2023 Vol.04 No.03-43, DOI:10.37547/ijasr-04-03-43.; Usmonov B.Sh., Rahimov F.X., Shukurillayev U.B. Innovatsiyalar va klasterlashtirish iqtisodiy taraqqiyot kafolati. Monografiya. – Toshkent. "KALEON PRESS", 2022. – 176 b.; Obidov R.R. Klaster tizimida xarajalar hisobini takomillashtirish, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2021. - 49 b.; O.R.Fayziyev. Moyli ekinlar mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. i.f.bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2022. 56 b.; A.K.Aytimbetov. Baliqchilik tarmog'i samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2023. 58 b.; Roziqov J.M. Meva-sabzavotchilik klasterlarini boshqarishni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2023. 50 b.; Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M. Agroklastar: tashkil etishning nazariy asoslari. //Iqtisod va moliya. 2014. 2-son. 19-25-b. Raxmatov M.A., Zaripov B. Klaster - integratsiya - innovatsiya va iqtisodiy o'sish. - T.: Zamin Nashr 2018. -37 b.; Qurbanova D.M. Проблемы формирования инновационных кластеров в Республике Узбекистан. - Т.: Иктисод ва молия. 2010. 66-69-b.;

Tadqiqotning maqsadi agroklastarlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv samaradorligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agroklastarlarni boshqarishning zamonaviy nazariy-konseptual asoslari, tashkiliy modellari va rivojlanish tendensiyalarini tizimli tahlil qilish;

agroklastarlarda strategik, innovatsion va integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarining mazmuni, funksiyalari va tamoyillarini aniqlash hamda ularning samaradorlikka ta'sirini baholash;

rivojlangan davlatlarda agroklastarlarni boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslash;

O'zbekistonda agroklastarlar faoliyatini tartibga soluvchi davlat siyosati va institutsional muhitning boshqaruv samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish;

agroklastar ishtirokchilari o'rtasidagi kooperatsiya, integratsiya va manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi boshqaruv mexanizmlarining amaldagi holatini baholash;

agroklastarlarda resurslardan foydalanish samaradorligi, biznes-jarayonlar va qiymat yaratish zanjirini zamonaviy boshqaruv mezonlari asosida kompleks baholash;

agroklastarlar faoliyatiga raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt elementlari, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish va innovatsion boshqaruv vositalarini joriy etish imkoniyatlarini asoslash;

agroklastarlarning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan strategik boshqaruv modelini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida mamlakatimiz agroklastarlari va ularning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv tizimi hisoblanadi. Mamlakatimizda bugingi kunda meva-sabzavotchilik klasterlari 245 ta, paxta-to'qimachilik klasterlari 134 ta, g'allachilik va boshqa agroklastarlar 84 tani tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti agroklastarlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan boshqaruv qarorlari, resurslarni taqsimlash va samaradorlikni oshirish bo'yicha iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida taqqoslama tahlil, statistik tahlil, omilli tahlil, SWOT tahlil, so'rov, tanlanma kuzatuv, grafik talqin, tizimli tahlil, matematik-ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondoshuvga ko'ra, "korxonaning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi" tushunchasi korxonaning strategik maqsadlariga erishish jarayonida tashkiliy tuzilma, boshqaruv vakolatlari, iqtisodiy resurslar, mehnat salohiyati, innovatsion imkoniyatlar va bozor mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali minimal yo'qotishlar bilan maksimal iqtisodiy, operatsion, ijtimoiy va raqobatbardoshlik natijalariga erishish darajasini ifodalovchi kompleks boshqaruv kategoriyasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

agrosanoat majmuasining uzoq muddatli strategik rivojlanish ehtiyojlari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy amaliyot natijalarining qiyosiy tahlili asosida agroklastarlarni innovatsion boshqarishning takomillashtirilgan milliy

modeli ishlab chiqilib, uning samaradorligini oshiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar hamda institutsional omillar tizimlashtirildi;

agroklastlarlar ishtirokchilari o'rtasida vertikal va gorizontaal kooperatsion aloqalarni integratsiyalash hamda iqtisodiy va tashkiliy manfaatlar muvozanatini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan kompleks integratsion boshqaruv yondashuvi ishlab chiqilib, uning metodologik asoslari takomillashtirildi;

agroklastlarlar faoliyati samaradorligini oshirishda IoT, GIS va AI texnologiyalarini yagona "raqamli agroboshqaruv ekotizimi" sifatida integratsiyalashga asoslangan ilmiy-amaliy yondashuv taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

agroklastlarlarni tashkil etish zaruratining asosiy sabablari hamda klasterli yondashuvni joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy samaralari asoslab berilgan;

jahon tajribasidagi agroklastlar modellari, ularning asosiy xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekiston sharoiti uchun mos agroklastlar modeli taklif etilgan;

agroklastlar boshqaruvida ishtirok etuvchi subyektlar, ularning funksiyalari va o'zaro aloqalarining tashkiliy sxemasi aniqlanib, agroklastlarlarda tizimli boshqaruv yo'nalishlari asoslab berilgan;

xalqaro tajriba va milliy amaliyotni umumlashtirish asosida O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan agroklastlarlar uchun tavsiyaviy innovatsion boshqaruv modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda agroklastlarlarning moliyaviy hisobotlaridan olingan amaliy ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agroklastlarlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv samaradorligini oshirish, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish hamda agroklastlarlar faoliyatida zamonaviy menejment yondashuvlarini rivojlantirishga oid iqtisodiy bilimlarni boyitishi bilan belgilanadi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar agroklastlarlarni boshqarishning nazariy-metodik asoslarini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan innovatsion boshqaruv modelini agroklastlarlar faoliyatiga joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, hamkorlikni mustahkamlash va agroklastlarlar faoliyatining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash imkoniyati bilan ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan agroklastlarlar rivojiga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va oliy ta'lim muassasalarida tegishli fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Agroklastlarlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv samaradorligini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondoshuvga ko'ra, "korxonaning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi" tushunchasi korxonaning strategik maqsadlariga erishish jarayonida tashkiliy tuzilma, boshqaruv vakolatlari, iqtisodiy resurslar, mehnat salohiyati, innovatsion imkoniyatlar va bozor mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali minimal yo'qotishlar bilan maksimal iqtisodiy, operatsion, ijtimoiy va raqobatbardoshlik natijalariga erishish darajasini ifodalovchi kompleks boshqaruv kategoriyasi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya etilgan "Qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjiri" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat agrar universiteti rektorining 2026-yil 19-martdagi 1-9-6/74-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda yagona qiymat zanjirida mahsulot yaratadigan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlar boshqaruvini tashkil etish orqali takomillashtirilgan "korxonaning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

O'zbekiston agrosanoat majmuasining strategik rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan agroklasterni innovatsion boshqarishning takomillashtirilgan milliy modelini amaliyotga joriy etish taklifi natijasida boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va avtomatlashtirish darajasini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish hamda mahsulot yetishtirish va qayta ishlash jarayonlari samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 26-dekabrda 04/06-5034-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida mahsulot yetishtirish va qayta ishlash jarayonlari samaradorligi o'rtacha 11–13 foizga oshgan, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish hisobidan tashkiliy qarorlarni qabul qilish tezligi 16–18 foizga oshib, inson omilining ta'siri 14–20 foizga qisqarishiga erishilgan;

agroklasterni ishtirokchilari o'rtasida vertikal va gorizontaal kooperatsiyani integratsiyalash hamda iqtisodiy va tashkiliy manfaatlarni muvozanatli boshqarishga qaratilgan kompleks integratsion yondashuvni amaliyotga joriy etish taklifi natijasida klaster va fermer xo'jaliklari o'rtasida hamkorlik munosabatlarini shaffoflashtirish, resurslar va moliyaviy oqimlarni muvofiqlashtirilgan holda boshqarish imkoniyati yaratilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 26-dekabrda 04/06-5034-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida klaster va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi o'zaro ishonch va mas'uliyat darajasi 20–22 foizgacha oshgan;

agroklasterni faoliyati samaradorligini oshirishda IoT, GIS va AI texnologiyalarini yagona "raqamli agroboshqaruv ekotizimi" sifatida integratsiyalashga asoslangan ilmiy-amaliy yondashuvni amaliyotga joriy etish taklifi natijasida agroklasterni ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli monitoring qilish, yer va suv resurslaridan foydalanishni real vaqt rejimida nazorat qilish hamda boshqaruv qarorlarini sun'iy intellekt asosida qabul qilish imkoniyati yaratilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 26-dekabrda 04/06-5034-son ma'lumotnomasi). Mazkur yondashuvni joriy etish natijasida agrotexnik tadbirlarni rejalashtirish aniqligi 18–20 foizga, resurslardan

foydalanish samaradorligi 15–17 foizga oshgan, boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqti 20 foizgacha qisqargan hamda agroklaster faoliyatining umumiy boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshgan.

T

a

d **Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan OAK e’tirof etgan ilmiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shuningdek ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma’ruza va tezislar nashr etilgan.

o **Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to’qqizta ta paragrafni o’z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 150 betni tashkil etadi.

n

a

t

i

j

a

l

a

r

i

n

i

n

g

a

p

r

o

b

a

t

s

i

y

a

s


i

Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari, tadqiqotning ob‘ekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyasining **“Agroklasterlarni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida agroklasterlarni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari, ularning jahon amaliyotida shakllangan modellari hamda agroklasterlarni tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion boshqarishga oid ilmiy yondashuvlar tizimli ravishda tadqiq etilgan. Bob yakunida xulosalar shakllantirilgan.



1-rasm. Agroklasterlarni tashkil etish zaruratning asosiy sabablari⁵.

Avvalo, agroklasterlarni tashkil etish zarurati qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan tarkibiy parokandalik, ishlab chiqarish va qayta ishlash bosqichlari o‘rtasidagi uzviy aloqalarning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, resurslardan samarasiz foydalanish, bozor va logistika muammolari hamda innovatsiyalarni joriy etishdagi institutsional cheklovlar bilan ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Bu omillar agrosanoat majmuasida raqobatbardoshlikni oshirish, qo‘shimcha qiymat zanjirini shakllantirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun agroklasterlar zarur ekanligini ko‘rsatadi (1-rasm).

Jahon amaliyotida shakllangan agroklaster modellari tizimlashtirilib, ularning tashkiliy tuzilishi, ustuvor yo‘nalishlari va milliy iqtisodiyotga ta‘siri qiyosiy tahlil qilingan. Jumladan, Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mamlakatlarida qo‘llanilayotgan agroklaster modellari iqtisodiy tuzilish, davlat ishtiroki, innovatsiya darajasi va eksportga yo‘naltirilganlik mezonlari asosida guruhlangan.

⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu tahlil natijasida har bir model muayyan iqtisodiy va institutsional sharoitlarda samarali ekanligi, biroq ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy xususiyatlarga moslashtirish zarurligi asoslab berilgan (1-jadval).

1-jadval

Jahon tajribasidagi agroklastler modellari⁶

№	Model nomi	Mamlakat Hudud	Asosiy xususiyatlari	Ustuvor yo‘nalishlar	Xususiy belgilari
1	Italiya modeli	Italiya	Kichik firmalarning katta assotsiatsiyalar bilan hamkorligi	Kichik biznesni rivojlantirish, mahalliy brendlar	Hududiy kooperatsiya, dizayn va sifatga asoslangan eksport
2	Yaponiya modeli	Yaponiya	Yirik yetakchi firma atrofida shakllanuvchi tarmoq	Texnologik mahsulotlar, ishlab chiqarish zanjiri	Integratsiyalashgan yetkazib beruvchilar tizimi
3	Finlyandiya modeli	Finlyandiya	Ta‘lim, tadqiqot va ishlab chiqarish integratsiyasi	Innovatsiya, ta‘lim, resurs tejamkorlik	Ilmiy markazlar bilan uzviy bog‘liq
4	Shimoliy Amerika modeli	AQSH, Kanada	Aniq raqobatga asoslangan, hamkorlik kam	Ommaviy ishlab chiqarish, past narxli mahsulotlar	Ichki raqobat orqali samaradorlik
5	Hind-Xitoy modeli	Hindiston, Xitoy	Davlat yetakchi rolda, xorijiy investitsiyalar jalb qilinadi	Texnologiya transferi, eksportbop ishlab chiqarish	Davlat markazlashgan siyosat va qo‘llab-quvvat
6	Sobiq Ittifoq modeli	Rossiya, Markaziy Osiyo	Yirik ishlab chiqarish, kam raqobat	Taxlil va rejalashtirish asosida rivojlanish	Markazlashgan boshqaruv, kam faol bozor mexanizmlari
7	Niderlandiya modeli	Niderlandiya	Agrotexnologiya, eksport va ilmiy markazlar integratsiyasi	Eksport, innovatsiya, samaradorlik	Tepa texnologiyali teplitsalar, klaster ichidagi tez aloqa
8	Braziliya modeli	Braziliya	Yirik xususiy firmalar, davlat infratuzilmasi asosida	Eksport, agrobiznes, soya va kofe mahsulotlari	Logistika rivojlangan, xalqaro bozorlarga integratsiya
9	Germaniya modeli	Germaniya	Kichik fermerlar va ta‘lim muassasalari kooperatsiyasi	Ekologik mahsulotlar, barqarorlik	Agroekologiya, organik mahsulotlarga yo‘naltirilgan
10	Turkiya modeli	Turkiya	Davlat qo‘llab-quvvatlovi orqali xususiy sektorni rag‘batlantirish	Agroturizm, an‘anaviy mahsulotlar	Mahalliy qadriyatlariga asoslangan agroklastlerlar
11	Koreya modeli	Janubiy Koreya	Smart-fermalar, raqamli texnologiyalar	Raqamlashtirish, eksport, yuqori texnologik mahsulotlar	Robotlashgan teplitsalar, sensor tizimlar, avtomatlashtirilgan klasterlar

Shu bilan birga, agroklastlerlarni agroparklar, qishloq xo‘jaligi kooperativlari va an‘anaviy fermer xo‘jaliklari bilan solishtirish orqali ularning ustun jihatlari ochib berilgan. Solishtirma tahlil natijalariga ko‘ra, agroklastlerlar qiymat zanjirining barcha bosqichlarini – mahsulot yetishtirish, qayta ishlash, logistika va sotishni – yagona tizimda birlashtirishi, markazlashgan boshqaruv orqali resurslardan samarali foydalanish imkonini berishi hamda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishini ta‘minlashi bilan boshqa tashkiliy shakllardan ustun ekanligi aniqlangan (2-jadval).

Tadqiqot ishining natijalaridan biri sifatida agroklastlerlarni boshqarishda tizimli va kompleks yondashuvning zarurligi asoslab berilgan. Jumladan, agroklastlerlarni samarali rivojlantirish uchun strategik, tashkiliy, iqtisodiy, innovatsion, investitsion, moliyaviy, infratuzilmaviy va ekologik boshqaruv yo‘nalishlarini o‘zaro uyg‘un holda amalga oshirish zarurligi ilmiy jihatdan ochib berilgan.

⁶ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

**Agroklastar, agropark, kooperativ va an'anaviy fermer xo'jaliklarining
solishtirma tavsifi⁷**

Ko'rsatkichlar	Agroklastar	Agropark	Kooperativ	An'anaviy fermer xo'jaligi
Maqsad	Qiymat zanjirini birlashtirish	Yangi texnologiya va eksport	A'zolar manfaatini himoya qilish	Yakka tartibda mahsulot yetishtirish
Boshqaruv shakli	Markazlashgan	Davlat-xususiy/xususiy	A'zo yig'ilishi	Fermer tomonidan
Hamkorlik darajasi	Yuqori	O'rtacha	O'rtacha	Past
Qamrov doirasi	Yetishtirish – qayta ishlash – logistika – sotish	Qayta ishlash va sotish	Yetishtirish va marketing	Yetishtirish
Samaradorlik ko'rsatkichi	Yuqori	O'rtacha	O'rtacha	Past

Tadqiqot ishining natijalaridan biri sifatida agroklastarlarni boshqarishda tizimli va kompleks yondashuvning zarurligi asoslab berilgan. Jumladan, agroklastarlarni samarali rivojlantirish uchun strategik, tashkiliy, iqtisodiy, innovatsion, investitsion, moliyaviy, infratuzilmaviy va ekologik boshqaruv yo'nalishlarini o'zaro uyg'un holda amalga oshirish zarurligi ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Ushbu yondashuv agroklastar faoliyatini faqat ishlab chiqarish samaradorligi bilan cheklamasdan, balki innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan yaxlit boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi (2-rasmga).

Xorijiy adabiyotlarda "korxonaning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi" yagona tor ta'rif bilan emas, balki strategik maqsadga erishish, resurslardan oqilona foydalanish, ichki jarayonlar uyg'unligi, manfaatdor tomonlar qoniqishi va uzoq muddatli barqaror natija mezonlari orqali izohlanadi.


Fikrimizcha, *korxonaning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi* - bu korxonaning strategik maqsadlariga erishish jarayonida tashkiliy tuzilma, boshqaruv vakolatlari, iqtisodiy resurslar, mehnat salohiyati, innovatsion imkoniyatlar va bozor mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirish orqali minimal yo'qotishlar bilan maksimal iqtisodiy, operatsion, ijtimoiy va raqobatbardoshlik natijalariga erishish darajasini ifodalovchi kompleks boshqaruv kategoriyasidir⁸.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonaning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvi samaradorligi tushunchasi iqtisodiy nazariya va menejment fanida evolyutsion rivojlanib, oddiy iqtisodiy natijadorlik mezonlaridan kompleks boshqaruv kategoriyasiga aylangan. Dastlab samaradorlik foyda, rentabellik va mehnat unumdorligi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholangan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda u strategik maqsadlarga erishish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion rivojlanish, manfaatdor tomonlar qoniqishi va raqobatbardoshlik darajasi bilan uzviy bog'liq holda talqin etilmoqda.

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

⁸ Mualliflik ta'rifi

Natijada, birinchi bobda olib borilgan nazariy tahlillar va qiyosiy tadqiqotlar asosida O‘zbekiston agrosanoat majmuasining strategik rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda agroklasterni innovatsion boshqarishning takomillashtirilgan milliy modeli ishlab chiqildi. Mazkur model jahon tajribasi elementlarini milliy institutsional muhitga moslashtirgan holda strategik, tashkiliy, iqtisodiy, innovatsion, investitsion, moliyaviy, infratuzilmaviy va ekologik boshqaruv yo‘nalishlarini yagona tizimga integratsiya qiladi hamda dissertatsiyaning birinchi ilmiy yangiligini tashkil etadi.



2-rasm. Agroklasterni tizimli boshqaruv yo‘nalishlari va ularning funksional vazifalari⁹.

Tadqiqot davomida O‘zbekistonda agroklasterni modelning shakllanish, taraqqiyot va barqarorlashuv bosqichlari tizimli tahlil qilingan. Jumladan, 2017–2024-yillar davomida agroklasterni davlat tashabbusi asosida shakllanib, keyinchalik xususiy sektor faolligining oshishi, kooperatsiya munosabatlarining kengayishi hamda boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi bilan tavsiflanadi (3-jadval).

⁹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

3-jadval

O'zbekistonda agroklastlar modeli: shakllanish, taraqqiyot va barqarorlashuv bosqichlari¹⁰ (2017–2024 yy.)

Bosqich nomi	Oraliq yillar	Asosiy xususiyatlari	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar (tanlanma)
Tizimli klasterlashning boshlang'ich islohotlar va eksperimental sinov davri	2017–2018	Ilk klasterlar (paxta-to'qimachilik), davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy tashabbus, investitsiya, dastlabki imtiyozlar va yer/ijara mexanizmlari	PQ–2978, PQ–3327, PF–5285, VM 53, VM 253, VM 752
Institutsional kengayish va tarmoqlararo diversifikatsiya	2019–2020	Meva-sabzavot, baliqchilik, urug'chilik, go'sht-sut, pillachilik, donchilik va b.; infratuzilma; moliyaviy rag'batlar; qiymat zanjiri	PQ–4005, VM 512, VM 619, PQ–4411, VM 806, VM 102, PF–5853
Klasterlashning strategik tizimlashuvi va raqobatbardosh innovatsion modelga o'tish	2021–2024	Tartibga solish chuqurlashdi, shartnomalar takomillashdi, raqamlashtirish va “aqli q/x” yondashuvi, ilm-fan integratsiyasi	PF–14, VM 733, VM 747, VM 5200, PQ–52, PF–60

Agroklastlar faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlar tarkibi va ularning funksional vazifalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, agroklastlarda fermer xo'jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar, logistika va servis tashkilotlari, moliya institutlari hamda davlat boshqaruv organlari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi (4-jadval).

4-jadval

Agroklastlar subyektlari va ularning vazifalari¹¹

Subyekt nomi	Asosiy vazifa va funksiyalari	Hamkorlik shakli
Fermer	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, xom ashyo tayyorlash	Shartnoma asosida yetkazib berish
Qayta ishlovchi korxona	Xom ashyoni qayta ishlash, qo'shilgan qiymat yaratish, tayyor mahsulot	Kooperatsiya, subkontraktlar
Logistika markazi	Saqlash, transportirovka, bozorga yetkazib berish	Logistika kelishuvlari
Moliya institutlari	Kredit, lizing, investitsiya	Moliyaviy hamkorlik
Davlat organlari	Qonunchilik, nazorat, qo'llab-quvvatlash, infratuzilma	Davlat-xususiy sheriklik

3- va 4-jadvallar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, agroklastlar ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar asosan vertikal yoki gorizontall kooperatsiya shaklida, alohida-alohida tashkil etilgan. Bunda mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va sotish zanjiri bo'ylab vertikal aloqalar mavjud bo'lsa-da, ishtirokchi subyektlar o'rtasida resurslardan birgalikda foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va iqtisodiy xavflarni taqsimlash mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Shuningdek, davlat organlari, moliya institutlari va servis tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlar ham asosan fragmentar xarakterga ega bo'lib, ularni yagona boshqaruv tizimi doirasida muvofiqlashtirish mexanizmlari to'liq shakllanmagan. Natijada mavjud kooperatsiya aloqalari iqtisodiy samaradorlik va boshqaruv barqarorligini ta'minlash darajasiga chiqmagan.

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Samarali boshqaruv qishloq xo'jaligi jarayonlarini barqaror va muvofiqlashtirilgan tarzda olib borishga yordam beradi, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv resurslarni optimal taqsimlash va jarayonlarni samarali tashkil etishga qaratilgan bo'lib, har bir vazifa agroklasterlarning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, quyida berilgan 1.5-jadvalda agroklasterlarda tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvning asosiy vazifalarini ko'rib chiqamiz.

5-jadval.

Agroklasterlarda tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvning asosiy vazifalari¹⁶

Boshqaruv vazifasi	Mazmuni (qisqacha izoh)	Ahamiyati
Rejalashtirish	Qishloq xo'jaligi jarayonlarini maqsadli tashkil etish	Resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi
Tashkil etish	Klaster subyektlari o'rtasidagi ichki munosabatlarni shakllantirish	Bir-birini to'ldiruvchi faoliyatni muvofiqlashtiradi
Motivatsiya	Ishtirokchilarni rag'batlantirish va natijaga yo'naltirish	Samaradorlik va barqarorlikka olib keladi
Nazorat va baholash	Faoliyat natijalarini tekshirish va tahlil qilish	Kamchiliklarni bartaraf etish va natijalarni yaxshilash imkoni
Hamkorlikni yo'lga qo'yish	Xususiy va davlat sektori o'rtasida munosabatlarni rivojlantirish	Iqtisodiy va institutsional barqarorlikni ta'minlaydi

Yuqoridagi 5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, agroklasterlarda tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvning asosiy vazifalari va ularning ahamiyati aniq ko'rsatilgan. Har bir vazifa klasterning samarali faoliyati va strategik maqsadlariga xizmat qiladi.

Birinchi vazifa — rejalashtirish, ya'ni resurslarni maqsadli taqsimlash va ish yo'nalishlarini belgilash. Bu agroklasterning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ikkinchi vazifa — tashkil etish, ya'ni klaster subyektlari o'rtasidagi ichki munosabatlarni shakllantirish va faoliyatni muvofiqlashtirish. Bu samaradorlikni oshiradi.


Motivatsiya vazifasi ishtirokchilarni rag'batlantirish va natijaga yo'naltirishga qaratilgan bo'lib, barqaror rivojlanish va samaradorlikni ta'minlaydi.

Nazorat va baholash vazifasi faoliyat natijalarini tekshirish va kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

Dissertatsiyasining **“O'zbekistonda agroklasterlarning tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvining hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda agroklasterlar faoliyatining amaldagi holati, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda agroklaster ishtirokchilari o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tahlil qilingan. Bobda agroklaster modelining evolyutsiyasi, ishtirokchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va kooperatsiya mexanizmlarining samaradorligiga alohida e'tibor qaratilgan.

An'anaviy agrar modelda mahsulotning katta qismi birlamchi xomashyo ko'rinishida realizatsiya qilinishi, qayta ishlash ulushining pastligi, logistika va saqlash infratuzilmasining cheklanganligi, shuningdek, ishlab chiqarish bosqichlarining o'zaro muvofiqlashmaganligi qo'shilgan qiymatning sezilarli

qismini “zanjir tashqarisida” qolib ketishiga olib keladi. Klasterlashuv esa, ushbu muammoni tizimli ravishda yechishga qaratilgan bo‘lib, “yetishtirish–qayta ishlash–saqlash–logistika–marketing–eksport” bosqichlarini bir butun boshqariladigan tizimga birlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Shu ma’noda, agroklastlar nafaqat ishlab chiqarishning tashkiliy shakli, balki agrar sohada institutsional transformatsiya vositasi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.



3-rasm. Agroklastlar ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqalarning tashkiliy sxemasi¹²

Izoh:

→ **Qizil chiziqlar** – davlat organlari bilan bog‘liq munosabatlar;
 → **Ko‘k chiziqlar** – moliyaviy munosabatlar (fermerlar va bank, qayta ishlovchi korxonalar va bank o‘rtasida);
 → **Yashil chiziqlar** – ishlab chiqarish va tovar harakatlanishi zanjiri (fermerlar → qayta ishlovchi korxonalar → logistika markazi/savdo tarmog‘i).

Shu sababli agroklastlar ishtirokchilari o‘rtasidagi vertikal va gorizontall kooperatsiyani yagona tizim doirasida integratsiyalash hamda iqtisodiy va tashkiliy manfaatlarni muvozanatli boshqarishni ta’minlovchi yondashuvni ishlab chiqish zarurati vujudga keldi (3-rasm).

Mazkur yondashuv agroklastlar doirasida ishtirokchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni faqat iqtisodiy operatsiyalar emas, balki yagona boshqaruv, muvofiqlashtirish va manfaatlar balansi nuqtayi nazaridan qayta tashkil etishni nazarda tutadi.

3-rasmda agroklastlar ishtirokchilari o‘rtasidagi tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar sxemasi aks ettirilgan bo‘lib, unda vertikal kooperatsiya (ishlab chiqarish va tovar harakati zanjiri), gorizontall kooperatsiya (bir xil faoliyat yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik) hamda davlat va moliyaviy institutlar bilan munosabatlar bir vaqtning o‘zida mavjud ekanligi ko‘rsatilgan. Mazkur sxema amalda ushbu munosabatlar alohida-alohida shakllanganini, ularni yagona integratsiyalashgan boshqaruv obyekti sifatida qarash zarurligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

¹² Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi tahlillar va 3-rasmda keltirilgan tashkiliy sxema asosida agroklaster ishtirokchilari o'rtasida vertikal va gorizontal kooperatsiyani alohida emas, balki yagona integratsiyalashgan boshqaruv obyekti sifatida qarash zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida kooperatsiyaning har ikki turini o'zaro uyg'unlashtiruvchi, ishtirokchi subyektlar o'rtasida funksiyalar, mas'uliyat va iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan kompleks integratsion yondashuv ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuv dissertatsiyaning ikkinchi ilmiy yangiligini tashkil etadi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida agroklasterlar doirasida fermer xo'jaliklari va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini baholash amalda mavjud iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali to'liq aks ettirilmayotgani aniqlandi. Jumladan, amaliyotda kooperatsiya munosabatlari asosan ishlab chiqarish hajmi, umumiy tushum yoki hosildorlik ko'rsatkichlari bilan baholanib, ishtirokchilarning birgalikda ishlashi natijasida hosil bo'ladigan sinergetik iqtisodiy samara alohida o'lchanmay qolmoqda.

Xo'jayli G'alla Cluster MCHJ, BCT Cluster MCHJ, Indorama Agro Cluster MCHJ hamda Silverleafe Agro Cluster MCHJ misolida o'tkazilgan tahlillar agroklasterlarda kooperatsiya samaradorligi darajasi bir xil emasligini ko'rsatdi. Xususan, Xo'jayli G'alla Cluster MCHJda 2024-yilda umumiy ishlab chiqarish hajmi 153 390 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, mazkur natijaning deyarli barchasi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan. Qayta ishlash, logistika va servis xizmatlari hisobiga yaratilgan qo'shilgan qiymatning mavjud emasligi klasterda qiymat zanjiri to'liq shakllanmaganligini va kooperatsiya munosabatlari asosan formal xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

BCT Cluster MCHJda esa umumiy ishlab chiqarish hajmi 486 250 mln so'mni tashkil etib, uning 158 030 mln so'mi qayta ishlash, logistika va servis xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Qayta ishlangan mahsulotlar ulushining 32,5 foizga yetgani hamda logistika va servis xizmatlari hisobidan qo'shimcha daromad shakllangani klasterda kooperatsiya aloqalari iqtisodiy mazmun kasb etayotganligini ko'rsatadi. Kooperatsiya sinergiyasi koeffitsiyentining 1,48 ga tengligi ishtirokchilar o'rtasida qo'shilgan qiymat yaratish mexanizmlarining shakllanganligini tasdiqlaydi.

Indorama Agro Cluster MCHJda kooperatsiya samaradorligi nisbatan yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Umumiy ishlab chiqarish hajmi 1 247 860 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, uning 491 430 mln so'mi qayta ishlash, logistika va servis xizmatlari hisobiga yaratilgan. Qayta ishlangan mahsulotlar ulushining 39,4 foizga yetgani, logistika va servis xizmatlaridan 138 740 mln so'm daromad olingani hamda kooperatsiya sinergiyasi koeffitsiyentining 1,65 ga tengligi klasterda integratsiyalashgan qiymat zanjiri samarali faoliyat yuritayotganligini ko'rsatadi.

Silverleafe Agro Cluster MCHJ faoliyati tahlili ham klasterda ishlab chiqarish, qayta ishlash va logistika bo'g'inlari o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalar shakllanganligini ko'rsatdi. Umumiy ishlab chiqarish hajmi 934 570 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning 366 400 mln so'mi qayta ishlash va servis xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Qayta ishlangan mahsulotlar ulushining 39,2 foizni tashkil etishi va kooperatsiya sinergiyasi koeffitsiyentining 1,64 ga tengligi klasterning yuqori darajadagi kooperatsion samaradorlikka ega ekanligini ifodalaydi.

6-jadval ma'lumotlarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, agroklasterlar faoliyati samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi bilan bir qatorda qayta ishlash, logistika va servis xizmatlari orqali yaratilayotgan qo'shilgan qiymat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'jayli G'alla Cluster MCHJda kooperatsiya aloqalari asosan ishlab chiqarish bosqichida cheklanib qolgan bo'lsa, BCT Cluster MCHJ, Indorama Agro Cluster MCHJ va Silverleaf Agro Cluster MCHJlarda qiymat zanjirining keyingi bo'g'inlari rivojlanganligi sababli kooperatsiya sinergiyasi yuqori darajada shakllangan. Mazkur holat klasterlar faoliyati samaradorligini oshirishda qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, logistika va servis xizmatlarini rivojlantirish hamda klaster ishtirokchilari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

6-jadval

G'alla klasterlarida kooperatsiya samaradorligini baholash uchun asosiy integral ko'rsatkichlar (2024-yil)¹³

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Xo'jayli G'alla Cluster MCHJ (QQR)	BCT Cluster MCHJ (Buxoro)	Indorama Agro Cluster MCHJ (Qashqadaryo)	Silverleaf Agro Cluster MCHJ (Sirdaryo)
Umumiy ishlab chiqarish hajmi (Rk)	mln so'm	153 390	486 250	1 247 860	934 570
Fermer xo'jaliklari hissasi (Rf)	mln so'm	153 390	328 220	756 430	568 170
Qayta ishlash, logistika va servis hissasi (Ri)	mln so'm	0	158 030	491 430	366 400
Qayta ishlangan mahsulot ulushi	%	0,0	32,5	39,4	39,2
